

Andijon viloyati statistika boshqarmasi



2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -
2742,6 mlrd. so`m

Yirik qurilish tashkilotlari
ulushi – **3,5 %**

Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi
– **73,2 %**

Norasmiy sektor
ulushi – **23,3 %**

Andijon viloyatida qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotning ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida Andijon viloyatida jami **2742,6** mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan **107,5 %**ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **96,8** mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,5 %**ni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **118,4 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **73,2 %**i yoki **2006,5** mlrd.so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **124,2 %**ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **23,3 %** yoki **639,3** mlrd.so`m to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **26,5 %** ga kamaydi.



Yirik qurilish tashkilotlari

- hajmi - 96,8 mlrd.so`m
- o`sinh sur`ati - 118,4 %
- ulushi - 3,5 %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- hajmi - 2006,5 mlrd.so`m
- o`sinh sur`ati - 124,2 %
- ulushi - 73,2%



Norasmiy sektor

- hajmi - 639,3 mlrd.so`m
- o`sinh sur`ati - 77,9 %
- ulushi - 23,3 %

Iqtisodiy faoliyat bo`yicha qurilish ishlari, mlrd.so`m



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **73,1 %**ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan **1,5 %** punktga kamaydi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **9,3 %** ni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **0,9%** punktga ko`paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa **17,6 %** to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan **0,6 %** punktga ko`paydi.



Yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlari faoliyat turlari bo`yicha tarkibi,



- Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo`yicha
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Mos ravishda, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi **73,2** %ni (**10,1** % punktga ko`paydi) va norasmiy sektorning ulushi **23,3** %ni (**12,4** punktga kamaydi) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **8,0%**ni tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **91,8%** (1,9 punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **0,2 %**ni (5,3 % punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **15,8%** tashkil etdi va **2,3%** punktga ko'paydi. Qolgan **84,2%**i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **2,3 %** punktga kamaydi.

Xududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

(2019 yil yanvar-sentyabr oylarida)

| | Jami, mlrd.so`m | O`sinh sur`ati, %da | shu jumladan, mulkchilik shakllari bo`yicha | |
|--------------------------|--------------------|---------------------------|--|------------------|
| | | | Davlat, %da | Nodavlat, %da |
| Viloyat bo`yicha: | 2742,6 | 107,5 | 6,0 | 94,0 |
| ➤ Andijon shahar | 1067,1 | 110,5 | 2,7 | 97,3 |
| ➤ Xonobod shahar | 78,6 | 102,3 | 0,0 | 100,0 |
| ➤ Andijon tuman | 297,1 | 126,4 | 4,4 | 95,6 |
| ➤ Asaka tuman | 130,6 | 100,1 | 5,1 | 94,9 |
| ➤ Baliqchi tuman | 70,7 | 164,2 | 9,3 | 90,7 |
| ➤ Bo`z tuman | 98,3 | 87,4 | 6,7 | 93,3 |
| ➤ Buloqboshi tuman | 40,4 | 100,0 | 16,3 | 83,7 |
| ➤ Jalalquduq tuman | 111,8 | 100,1 | 24,3 | 75,7 |
| ➤ Izboskan tuman | 107,3 | 113,0 | 6,1 | 93,9 |
| ➤ Ulug`nor tuman | 51,9 | 109,2 | 41,7 | 58,3 |
| ➤ Marxamat tuman | 111,1 | 100,0 | 5,9 | 94,1 |
| ➤ Oltinko`l tuman | 151,9 | 90,3 | 4,3 | 95,7 |
| ➤ Paxtaobod tuman | 112,6 | 100,0 | 7,8 | 92,2 |
| ➤ Xo`jaobod tuman | 66,8 | 100,2 | 9,9 | 90,1 |
| ➤ Shaxrixon tuman | 165,6 | 106,2 | 4,0 | 96,0 |
| ➤ Qo`rg`ontepa tuman | 80,9 | 102,9 | 8,1 | 91,9 |

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo`yicha qurilish ishlari tarkibi




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **2006,5** mlrd. so`mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **73,2** %) tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **124,2** %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining **23,3**%ni yoki **639,3** mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **77,9** %ni tashkil etdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **96,8** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi **3,5** %ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **118,4** %ni tashkil etdi.

Yanvar- sentyabr oylarida qurilish ishlarini bajaruvchi sub'ektlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari, % da




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo'yicha tarkibida yuqori ko'rsatkich Andijon shahri (hududdagi qurilish hajmining **56,7** %ini tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **193,0**%ni tashkil etdi) va Ulug'nor tumanida (mos ravishda, **15,5**% va o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,5** % punktga kamaydi) kuzatildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari ulushi, % da




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Ulug'nor tumanidagi (hududdagi qurilish hajmining **15,5** %ini tashkil qilib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,4 foizga kamaydi).

Hududlarda qurilish ishlarining o`shish sur'atlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan % da),



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish sur`ati Andijon shahrida «Andigondavmaxsuspudrat» davlat unitar korxonasi **146,3%** (25,5 % ko'paydi) kuzatildi. Bu korxonadan Andijon viloyati irrigasiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, Andijon viloyati daryo qirg'oqlarini mustahkamlash, Andijon viloyatidagi chegara oldi hududlarida rokat yo'llar qurish.

2019 yilning yanvar- sentyabr oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da



Andijon viloyati qurilish ishlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida katta ulushini asosan Andijon shahrida (**38,9 %**), Shaxrixon (**6,0 %**) va Andijon tumanlarida (**10,8 %**) kuzatildi.



Andijon viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **S.Hadjaev**

Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37